

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2019-yil yanvar-dekabr

(dastlabki ma'lumot)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2107,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan **23,3 % ga o'sdi**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi.


(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Viloyat bo'yicha - jami	148051	3692,7	2107,1
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	14587	517,5	2956,4
Qurilish	5135	111,3	1807,2
Savdo	2711	62,5	1920,2
Tashish va saqlash	13352	478,2	2984,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	584	10,2	1456,5
Axborot va aloqa	1259	33,5	2216,9
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3261	173,9	4444,1
Ta'lim	54756	1181,6	1798,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25677	386,7	1673,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	25763	529,9	1714,1
Boshqa faoliyat turlari	24040	543,4	1883,7

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik soxasida(179,0 %), sanoatda (164,8 %), tashish va saqlashda (147,5 %), axborotlashtirish va aloqada (107,7 %), qurilishda (105,9 %), savdoda (98,4 %), ta'limda (80,5 %), sogliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75,5 %), san'at ko'ngil ochish va dam olishda (74,6 %) va boshqa yo'nalishlarda (91,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



2019-yil yanvar-dekabr


(dastlabki ma'lumot)

Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kogon shahrida **2966,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 140,8 %), Qorovulbozor tumanida **2934,8** ming so'mni (139,3 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Peshko` tumanida **1643,3** ming so'mni (78,0 %), Vobkent tumanida **1657,0** ming so'mni (78,6 %) va Qorako`l tumanida **1686,2** ming so'mni (80,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)



Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1709,3	2107,1	123,3
Buxoro sh.	1721,4	2271,2	131,9
Kogon sh.	2380,4	2966	124,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1536,3	1849,0	1240,4
Buxoro	1451,5	1843,3	127,0
Vobkent	1302,6	1657,0	127,2
G'ijduvon	1386,1	1787,8	129,0
Kogon	1517,9	1845,9	121,6
Qorako'l	1312,5	1686,2	128,5
Qorovulbozor	2620,0	2934,8	112,0
Peshko'	1419,4	1643,3	115,8
Romitan	1802,7	1743,5	96,7
Jondor	1324,0	1694,6	128,0
Shofirkon	1306,0	1744,7	133,6


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha - jami	1709,3	2107,1	123,3
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2816,6	2956,4	105,0
Qurilish	1810,8	1807,2	99,8
Savdo	1682,9	1920,2	114,1
Tashish va saqlash	2521,0	2984,3	118,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1544,8	1456,5	94,3
Axborot va aloqa	1840,9	2216,9	120,4
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3059,0	4444,1	145,3
Ta'lim	1375,6	1798,3	130,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1290,1	1673,2	129,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1275,1	1714,1	134,4
Boshqa faoliyat turlari	1395,3	1883,7	135,0

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1-sentyabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.



Viloyat statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: L. Jivanov
(71) 230--83-16, 223-83-37